

DORIVOR VALERIANA “VALERIANA OFFICINALIS” O’SIMLIGINING BIOLOGIYASI VA O’SISH DINAMIKASI.

Xamraev Rashid Ravshan o’g’li

Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o’qituvchisi

ANNOTATSIYA: ushbu maqolada valeriano o’simligining tuzulishi, o’sishi va laboratoriya sharoitida unuvchanlik xususiyatlari haqida malumotlar keltirilgan.

KALIT SO’ZLAR: valeriana, poya, officinalis, urug’palla, urug’.

ABSTRACT: valeriana in this article information about the structure, growth and fertility characteristics of plant conditions is given.

KEY WORDS: valeriana, stem, officinalis, seed stage, seed

Respublikamiz olimlaridan A.I.Qosimov va M.M.Nabiyevlarning qayd etishlaricha, valeriana lotincha so’z bo’lib, rus va boshqa tillarga lotin tilidan o’tgan. Ba’zi manbalarda sinonim sifatida “maun”, “kadi o’t” degan nomlar berilgan. Lotincha valeriana aso’zining kelib chiqishi to’g’risida ikki xil fikr mavjud bo’lib, birinchisida bu nom Rim imperatorlaridan biri-Valeriana sharafiga berilgan deyilsa, ikkinchisida Valere-“sog’lom bo’lish degan so’zdan kelib chiqqan deyiladi. Rus tilidagi adabiyotlarda V. officinalisni “koshachiy maun” deb ham atashadi. Valerianaceae oilasining valerianlar turkumi 250 dan ortiq turni o’z ichiga olib, Yevrosiyo qitasining mo’tadil iqlimli hududlarida keng tarqalgan. O’zbekistonda ularning 3 turi tarqalgan (V.chionophila, V.ficariifolia, V.fedschenkoi).O’rta Osiyoning buyuk olimi va tabibi Abu Ali Ibn Sino o’zining “Tib qonunlari” asarida tog’ sunbulining ildizi deb tarif berib o’tgan va unga dorivor vosita sifatida yuqori baxo bergan.

E.B.Arushanyan va boshqalarning malumotlariga qaraganda, anksioltik tofizopam vositasi yosh o’smirlarda tasirchanlikni kamaytiradi, ko’rish va eshitish qobiliyatini yaxshilaydi.

Valeriana officinalis-Asorundoshlar-Valerianaceae oilasiga kiruvchi, balandligi 2 m ga yetadigan ko’p yillik o’t xisoblanadi. Ildiz poyasi qisqa bo’lib, undan ko’p sonli mayda qo’shimcha ildizlar paydo bo’ladi va vertikal o’sadi. Ildizpoyadan birinchi yili ildiz oldi to’p barglari, ikkinchi yil uchki kurtakdan poya rivojlanadi. Poyasi yashil rangda bo’lib, ko’p sonli bo’g’im va bo’g’im oraliqlari mavjud. Poyasi tik o’suvchi, silindirsimon, diametric o’rtacha 3.5-5.0 mm, kuchsiz qirrali, shoxlanmagan, ichi g’ovak, yuqori qismi tuksiz, pastki qismi esa tuklar bilan qoplangan. Barglari poyada

qarama-qarshi joylashgan oddiy, toq patsimon bargchalar xosil qiladi va ularni soni 4-11 tagacha yetadi. Eng ko'p rivojlangan barglarining uzunligi 7-9 sm, eni 3-3.5 sm, barg bo'lakchalarining chetlari tishsimon qirqilgan. Gullari mayda, xidli, poyaning uchki qismida qalqonsimon oddiy to'pgillar yirik ro'vak to'pgullarni hosil qiladi. Gul kosacha barglari gul ichiga qarab qayrilganligi sababli aniq bilinmaydi. Gultojisi voronkasimon, besh bo'lakli, uchki qismi ichkariga qayrilgan, oq yoki pushti rangli, changchisi 3 ta, urug'chisi 3 meva bargidan hosil bo'lgantugunchasidan iborat. Mevasining uzunligi 3-4.8 mm, eni 1-1.5 mm va diametri 0.4-0.8 mm, uziq, tuxumsimon och qo'g'ir rangda. Urug'ining unuvchanligi- o'simlikning urug'dan ko'payishi va tiklanishini, turning taqdirini hal qiluvchi hamda urug' sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatgichlardan biri hisoblanadi.

V. officinalis-mevasi och qo'g'ir yoki jigar rang, urug'i tuxumsimon choziqsimon, uzunligi 2.5-5 mm. urug'ining ichki qismidagi kokillari 10 ta uzun qirqilgan tukchalardan iborat. Ular och sariq rangda. Absolyut urug'ning og'irligi 0.4 -0.6 g . Uning urug'lari 2yil mobaynida o'zlarining unuvchanligini yo'qotmaydi.

*V. officinalis*ning gipokotili ingichka oq rangda bo'lib, urug' ungan kundan boshlab, har kuni o'rtacha 1-2 mm o'sadi. Gipokotilning sekin o'sishi va qisqa bo'lishi, urug'larni tuproqqa chuqur ekish mumkin emasligini ko'rsatadi. Chunki *V. officinalis* ning urug'ini 0.5 sm dan chuqurroqqa ekilsa, una boshlagan urug'lar yerdan chiqib ketadi. 10 kunlik maysalarda uning uzunligi 3.5+-0.3 mm bo'lib, keying kunlari o'sish sekinlashadi va maysalar 15 kunlik bo'lganda o'sishdan to'xtaydi.

Biz dastlab *V. ficariifolia* urug'larining unuvchanlik xususiyatlarini laboratoriya sharoitida kuzatdik. Kuzatishlar 1, 2 va 3 yil saqlangan urug'larda olib borildi. Termostatda harorat 10+13°C da bir yil saqlangan urug'larning 19 kun davomidagi unuvchanligi 25.2+2.2% ni tashkil etdi. Harorat 15+18°C da saqlangan urug'larning 16 kun davomidagi unuvchanligi 52.3+-2.5% ni tashkil etdi. Harorat 20+23°C ga ko'tarilganda, 14 kun davomidagi, urug'larning unuvchanligi 90.5+1/5% gacha ko'tarildi. Bu ko'rsatgichlar ikki saqlangan urug'larda esa, tegishli xolda, 10+13°C da va 22 kun, 19.5+2.0%, 15+18°C da 20 kun, 40.4+-2/5%; 20+23°C da 18 kun 65+-2.4% ni tashkil etdi.

Valeriana ficariifolia urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi (n=100)

Сақланиш муддати, йиллар	Ҳарорат, °С	Унувчанлик,* %	Униш даври, кун	Униш энергияси
1	10-13	25,2±2,2	19	1,3

	15-18	52,3±2,5	16	3,3
	20-23	90,5±1,5	14	6,5
2	10-13	19,5±2,0	22	0,9
	15-18	40,4±2,5	20	2,02
	20-23	65,0±2,4	18	3,6

[TerDu laboratoriya xonasi tajriba ishlari davomida amalga oshirgan ishlarning jadvalda aks etishi]

Valeriano officinalis kuzatilganda, termostat harorati 10+13°C da 1 yil saqlangan urug'larning 21 kun davomidagi unuvchanligi 23.2+-2.3% ni tashkil etdi. Harorat 15+18°C da saqlangan urug'larning 18 kun davomidagi unuvchanligi 48.3+-2.6% ni tashkil etdi. Dala sharoitida urug'larning unuvchanligi o'rganilganda dastlab, urug' unuvchanligini kuzatishda ularning soya na quyosh ekspozitsiyasi, ekish muddati va urug'ni tuproqqa ekish chuqurliklari bo'yicha variantlar tanlab olindi. Kuzatishlar davomida havo va tuproq harorati ham aniqlab borildi. Erta baxor (mart) soya ekspozitsiyasida havo harorati 14°C va tuproq harorati 10.5°C ni tashkil etganda, tuproq yuzasida ekilgan urug'larning unuvchanligi 18.7+ -2.3%, 0.2 sm tuproq chuqurligida 24.0+-2.5% yoki 0.5 sm qatlamda 20.6+-2.3% kuzatildi. Aprel oyida esa xavo harorati 11.8°C ni tashkil etganda, tuproq yuzasiga ekilgan urug'larning unuvchanligi 21.2+-2.4% 0.2 sm tuproq chuqurligida 27.3+-2.6% va 0.5 sm tuproq chuqurligida 23.0+-2.4% ni tashkil etdi.

Valeriano officinalis urug'larining laborotriya sharoitida unuvchanligi (n=100)

Сақланиш муддати, йиллар	Ҳарорат, °C	Унувчанлик,* %	Униш даври, кун	Униш энергияси
1	10-13	23,2±2,3	21	1,3
	15-18	48,3±2,6	18	3,3
	20-23	88,5±1,7	15	6,5
2	10-13	19,5±2,0	22	0,9
	15-18	37,4±2,5	20	2,02
	20-23	63,0±2,4	18	3,6

Demak, ikkala turda ham urug'larning uzoq vaqt saqlanishi, uning unish qobiliyatini pasaytiradi.

Xulosa: Tajribalar natijasiga ko'ra, yozgi muddatda (iyul, avgust) soya

ekspozitsiyasida 0.2 sm tuproq chuqurligida ekilgan urug'larning yuqori bo'lganligi kuzatildi. Havо va tuproq haroratining zarur mayor (30+-25) ga yetishi urug'unuvchanligiga ijobiy tasir etadi va bu unuvchanlik ko'rsatkichning ortishiga sabab bo'ladi, degan xulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Babaxanyan M.A. Ochiq gidroponika sharoitida valeriana officinalis ishlab chiqarish // Agrokimyoviy muammolar va gidroponika institutining aloqalri bilan. Yerevan 1979-yil. No-18
- 2.Bazileviskaya N.A. O'simliklarni introduksiya qilish nazariyalari va usullari.
- 3.Belolipov I.V. O'simliklarning yashash joylari bo'yicha ekologik introduksiyasi, o'simliklarni iqlimga moslashtirish: Toshkent 1972 -yil // BSAN O'Zssr,jild-S 59-79.
- 4.Munavvarov D. Valeriananing o'sishi, rivojlanishi va mahsuldorligi. G'arbiy Pomirda dorivor // Izv.AN TojSSR. Bo'lim bio 1991-yil 3-son bilan. 5-7.
- 5.Stepanenko O.G, Selenina L.V, Zazulya R.N Valeriano officinalis urug'larining gamma-treningining yer osti organlarining biomassasiga va ulardagi faol moddalar tarkibiga tasiri. // Rast resurslar XX-jild 3-nashr. 1985-yil. 300-305.

Ro'yxatga olish kartasi

Ma'ruzachi/ishtirokchining ismi sharifi (to'liq)	Xamrayev Rashid Ravshan o'g'i
Ish joyi /o'quv muassasasi	Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Lavozimi	O'qituvchi
Ilmiy darajasi va unvoni	
Ilmiy rahbarining F.I.Sh, darajasi va ilmiy unvoni (doktorant, talabalar uchun)	Omonov Mamatqobil I. b.f.d.prof.
Ma'ruza nomi	Dorivor valeriana "Valeriana officinalis" o'simligining o'sish biologiyasi va dinamikasi

Ishtirok etish shakli(<i>tanlangan shaklni tagiga chizing</i>)	<u>Offline</u> Online
Ishtirok shakli (<i>tanlangan shaklni tagiga chizing</i>)	<u>Faqat tezis nashri</u>
	Tezis nashri va ma'ruza
Kontakt telefon, e-mail	99-774-84-94 khamrayevrashid@gmail.com